

O'QUVCHILAR FORMASINING DARS JARAYONIGA TA'SIRI

*Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti Qo'qon filiali 3-23 Iqtisodiyot guruhi talabasi Mo'ydinova Dilfuzaxon
Telefon raqami: +998 93 045 83 12*

Annotatsiya: Ushbu tezisda o'quvchilar uchun joriy qilingan bir xildagi formalarning dars jarayoniga ta'siri haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Forma, Buyuk Britaniya, ijtimoiy tenglik, korrupsiya,adolat, individuallik, Bola huquqlari to'g'risida konvensiya.

Kirish: Dars-muqaddas. Ushbu so'zlar tag zamirida judayam katta ma'nolar bor. Avvalambor shuni ta'kidlab o'tish joizki, ilm dargohiga keluvchi har bir insonning oldiga qo'yan maqsadi bo'ladi. Kimdir ilm olish uchun, kimdir ilm berish uchun kelsa, kimlardir vaqtini o'tkazish uchun ham ilm dargohlariga kelishlari mumkin. Dars jarayoni ham o'ziga yarasha maqsadlar, ma'lum bir reja asosida tashkil etiladi. Talabalarga dars berayotgan o'qituvchilar o'zlaridagi bilimlarni yosh avlodga o'rgatish barobarida ularni katta hayotga tayyorlab boradi. Shu o'rinda savol tug'iladi. Maktablarda, universitetlarda joriy qilingan forma o'qituvchilarning dars o'tishiga, o'quvchilarning ilm olishiga qanday ta'sir o'tkazishi mumkin? Forma joriy qilishdan maqsad nima?

Asosiy qism: Maktab formasi dunyodagi rivojlanayotgan mamlakatlarda va totalitar hokimiyat rejimiga ega davlatlarga xos tushuncha. Albatta, istisnolar bor, lekin ko'pchilik davlatlar forma - odamlarni boshqarish uchun vosita deb hisoblaydi. Chunki maktab formasi bolalikdan o'z-o'zini ifodalash va mustaqil shaxsning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Buyuk Britaniya zamonaviy maktab formasini joriy etgan birinchi mamlakatdir. Hozir ham, Buyuk Britaniyada va u bosib olgan ko'plab mamlakatlarda forma bor. Hatto Yaponianing mashhur formasi ham Britaniya Qirollik Dengiz kuchlariga ishora qiladi.

Forma joriy qilinishidan dastlabki maqsad talabalarning o'rtasida ijtimoiy tenglikni ta'minlash bo'lган. Lekin boy oilada o'sgan hech bir bola past tabaqali bola bilan bir xil kiyim kiyishni xohlamaydi. Shuning uchun keyinchalik xususiy elita, ya'ni qimmat maktablar o'quvchilari boshqalardan ajralib turishlari uchun o'z formalarni joriy eta boshlashgan. Ya'ni kim qaysi maktabda o'qishi, boyligi yoki kambag'allagini uning formasidan bilib olish mumkin bo'lган.

Hozirda ko'plab rivojlangan davlatlar AQSH, Germaniya, Fransiya kabilarda formadan voz kechishmoqda. Chunki maktab formasi bolalikdan o'z-o'zini ifodalash va mustaqil shaxsning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Ho'sh, O'zbekistonda qanday holat kuzatilmoqda?

Sovet Ittifoqi bizga maktab formasi tushunchasini “olib keldi”. Forma kiyish hamma joyda majburiy edi. Buning sababi oddiy – totalitar tuzum o'rnatilgan edi. Sovet Ittifoqi qulaganidan keyin ko'p mamlakatlar, shu jumladan, Rossiyaning o'zi ham formani bekor qilganiga qaramay, O'zbekistonda bu saqlanib qoldi. Hozirda bu oq ko'yak, qora shim/yubka. Faqat maktablarda emas, balki kollej va universitetlarda ham. Yaqin kelajakda esa butun mamlakat bo'ylab bir xil formani joriy qilishga harakat qilishmoqda.

2017-yil avgust oyida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev taklif bilan chiqqan edi. U maktab o'quvchilari bir-biriga ustidagi kiyim-boshidan kelib chiqib munosabatda bo'layotganini va natijada turli mojarolar yuzaga kelayotganini qayd qilib, bunday holga yo'l qo'yib bo'lmasligini ta'kidlagan edi. Oradan bir yil o'tib, Vazirlar Mahkamasi 2019-yildan e'tiboran yagona maktab formasi joriy qilinishi haqidagi qarorni tasdiqladi.

Maktab formasi mavzusi ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilingan va hozir ham muhokamalar davom etmoqda.

Birinchidan, bu uning joriy etilishi oilasida maktab o'quvchisi bo'lgan har bir xonadonga taalluqli masaladir.

Ikkinchidan, bu masala hamma uchun tushunarli bo'lgan mavzu bo'lib, bu haqda hamma o'z qarashiga ega. Masalan, QQS singari, mavzulardan farqli o'laroq, maktab formasi haqida biror aqli gap aytish uchun maxsus iqtisodiy ta'lim ko'rgan bo'lish shart emas.

Uchinchidan, mavzu nisbatan qulay va xavfsiz; u orqali qo'rmasdan nechog'lik murosasiz qat'iyatga egaligini ko'rsatib qo'yish mumkin.

Va, to'rtinchidan, maktab formasi borasidagi bahslar, qolgan boshqa bahslar singari, radikal, liberal va jiddiy konservativ qarashlar spektrida, jamiyatning tabaqalanganligini ko'rsatib qo'ymoqda.

Bizning maktablar ko'p narsani sovet maktablaridan meros qilib olgan va u ham o'z navbatida forma talabi nihoyatda qat'iy bo'lgan inqilobdan avvalgi gimnaziyalar tizimidan shakllangan edi.

Maktab formasini jotiy etishdan asosiy muddao - bashing kiyining sinfdoshlarini ko'rib kambag'al oila farzandlarining o'ksinmasligi, shunga o'quvchilarning barchasini kiyim-bosh masalasida bir xil qilib qo'yish maqsad qilingan. Tarafdarlarning fikricha, bu narsa sinfdagi vaziyatni yumshatadi va kelishmovchiliklarning oldini oladi hamda dars paytida chalg'imaslikka, “kimning dadasi boyroq” qabilida musobaqalashmaslikka omil bo'ladi.

Qarshilarning fikricha esa, tabaqalanish allaqachon mavjud va uni forma bilan yashirishning iloji yo'q. Chunki, masalan, kimnidir shaxsiy haydovchi qimmat xorijiy mashinada eltib qo'yadi, kimdir esa og'ir sumka bilan piyoda

qatnaydi; kimadir qimmatbaho mobil telefon, sayr-sayohatlar va vaqtichog'lik qilish imkonи mavjud, boshqalarda esa yo'q.

Formaning asosiy vazifalaridan biri – hammani teng ko'rsatish, individuallikni barobarlashtirish. Bolalar uchun esa kiyimda, turmakda va buyumlar vositasida o'z individualligini ko'rsatish muhim. Pedagoglar va ota-onalar odatda maktabda individuallikning namoyon bo'lishiga qarshi bo'ladi. Ular qay darajada haq? Kelajakda ushbu "barobarlashtirish" qanday aks-sado beradi? Ayrim mamlakatlarda, aksincha, individualik va nostandard fikrlash rag'batlantiriladi. Bunga javoban esa maktab formasini kiyib ham o'z iqtidorini namoyon qilishning yo'llari ko'p degan fikrlar yangraydi.

Yagona forma borligining menga yoqmaydigan bir jihatи bor. Masalan, maktabda hammaga bir xil kiyim kiyish yuklatilgan. Buni bilish uchun albatta tekshiruv o'tkaziladi. Natijada ba'zan dars buzilish holatlari kuzatiladi, biror-bir sababga ko'ra forma kiymagan o'quvchini ustozlar ko'pchilikni oldida izza qilish holatlari kuzatiladi. Bu esa bolaning psixologiyasiga salbiy ta'sir o'tkazishi, uni maktabdan, o'qishdan bezdirishi mumkin, va hattoki o'sha dakki bergen o'qituvchiga nisbatan nafrat uyg'otishi ham mumkin. Malakali va sifatli ta'lim jarayonini tashkil etishdan ko'ra darslarga xalaqit beruvchi yuqoridagi kabi kundalik tekshirishlarni tashkil qilish osonroq; shuningdek, bilim darajasini oshirishdan ko'ra yuqoridagi kabi tekshirish natijalari bilan maqtanish osonroq.

"Forma ko'plar o'ylaganday shunchaki sovet davridan qolgan tushunarsiz odat emas, - deydi bir bloger. – U bolani tartib-qoidaga o'rgatishning muhim vositasidir. Bolaligidan tartibga o'rgatilgan odam katta bo'lganida intizomli mutaxasisiga aylanadi. Shu jihatidan maktab formasining davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi o'zini oqlaydi. Negaki davlat o'z fuqarolari intizomli, qonunlarni hurmat qiladigan insonlar bo'lishidan manfaatdor.

Maktablarda forma tekshiruvlari ko'plab o'tkazilishi ota-onalarning va ayrim ijtimoiy tarmoqlar faollarining e'tirozlariga sabab bo'ladi. Ular formaga e'tibor tufayli o'qish sifatiga e'tibor kamayib ketayotganini ta'kidlaydi. Bu borada xalq ta'limi a'lochisi, murabbiy va bloger Isroil Tillaboyev formaning ahamiyati haqida gapirarkan, yana bir muhim jihatи – maktabda tabaqalanishga yo'l qo'yilmasligiga e'tibor qaratdi:

"O'qituvchi sifatida formani kerak deb o'ylaydi ko'plab o'qituvchilar. To'g'ri, forma o'qish sifatiga bevosita ta'sir qilmaydi, bilimni har qanday formada ham egallah mumkin, lekin aholi moddiy ahvoli turlicha bo'lganda bir xil forma bo'lishi kim o'zarga kiyinish va kiyintirishning oldini oladi, deb o'ylayman".

O'qituvchilar va soha mutaxasislarining ko'pchiligi maktab formasini kerak deb hisoblaydi va uning ahamiyati kerak deb hisoblaydi.

Ba’zi insonlar esa formaning majburiy joriy qilinishiga qarshilik bildirishadi.

Masalan, bloger Nodir Zakirov singari bir guruh insonlar ta’lim muassasalarida kiyinish qoidalari o’rnatalishi tarafdori bo’lishadi. Bu AQSh va Kanadada qo’llaniladi. Ya’ni, maktabga mayka va tapochka kiyib boorish mumkin emas. Krossovka, jinsi va futbolkada – bemalol. Hijobda bemaol.

Bu eng yaxshi yechim bo’lishi mumkin. Kichik yoshdagি bolalar atrofdagi jamiyatning qanday darajada turli - tumanligini tushuna boshlashadi va maktabni bitirganidan so’ng katta hayotga ko’proq tayyor bo’lishadi.

Maktab formasiga qarshilar quyidagi bir qancha sabablarni keltirib o’tishadi:

1. Bu adolatsiz.
2. Bu xunuk.
3. Bu noqulay.
4. Bu ortiqcha bosh og’riq.
5. Bu qimmat.
6. Bu ijtimoiy muvozanatni o’rnatish usuli emas.
7. Bu tartib-intizom emas.
8. Bu eskirdi.

Asosiysi, forma ilmiy ko’rsatkichlarning yaxshilanishiga hech qanday ta’sir qilmaydi. Aksincha, atrofda hamma narsa va odamlar bir xil bo’lgan muhitda rivojlanish bo’ladimi? Yoki siz 20 yil oq ko’ylak va qora shim kiygan odamdan qandaydir kashfiyotlar kutyapsizmi?

Tarixga nazar tashlaydigan bo’lsak, al-Beruniy, al-Xorazmiy, Ibn Sinolar o’qigan madrasalarda forma barcha uchun majburiy etib belgilanmaganku!? Har kim o’z sharoitidan kelib chiqib kiyinib kelgan. Shunday bo’lsa-da, ular olamshumul kashfiyotlarni amalga oshirishgan. O’z nomlarini abadiylikka muxrashgan.

Yuqorida keltirib o’tilgan fikrlarga tayanib, forma kerak yoki kerak emas deyish qiyin. Lekin bir narsani aytish muhim-ki, forma dars jarayoniga bevosita ta’sir qilmaydi va barcha uchun bir xildagi formani majburiy kiydirish zarur emas desak adashmaymiz. Har bir insonning dunyoqrashi turlicha bo’lganligi tufayli bir qarorga kelish judayam qiyin. Nima bo’lgan taqdirda ham bolalar ilm olishdan, davlatimiz esa rivojlanishdan to’xtamasligi shart.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. “Ta’lim to’g’risoda”gi qonun O’RQ-637-son. 23.09.2020
2. Bola huquqlari to’g’risida Konvensiya, BMT Bosh Assambleyasi 20.11.1989

3. “Davlat umumiy o’rta ta’lim muassasalari o’quvchilarini zamonaviy yagona maktab formasi bilan ta’minlashning qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida”gi Vazirlar Mahkamasining qarori 20.05.2022

Foydalanilgan internet saytlari

4. www.ziyonet.com
5. www.edu.uz
6. www.azkurs.org
7. www.kun.uz